

O‘LMAS UMARBEOVNING “ODAM BO‘LISH QIYIN” ASARIDA INSONIY FAZILATLAR TALQINI

Abdullayeva Ro‘zibuvi Lutfullayevna

Samarqand davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: SamDPI o'qituvchisi

Imomqulova Gulchehra Norboboyevna

Annotatsiya: Odam bo‘lish qiyin — O‘lmas Umarbekov tomonidan yaratilgan, 1969-yilda yozilgan roman bo‘lib, bir necha bor boshqa tillarga tarjima qilingan. Insoniylik, vijdon, halollik va ma’naviyat masalalari chuqur badiiy talqin etilgan. Muallif haqiqiy inson bo‘lish uchun faqat bilim va mansab emas, balki yuksak axloq ham muhim ekanini ta’kidlaydi. Romandagi Abdulla obrazi orqali ayrim kishilarning boylik va mansab yo‘lida o‘z va’dalarini unutishi keskin tanqid qilinadi. Ushbu obraz vositasida insonning moddiy manfaat ortidan quvib, vijdoni hamda insoniy fazilatlarini yo‘qotib qo‘yishi yorqin ifodalangan.

Shuningdek, asarda ota-onaga hurmat, inson qadr-qimmat, odamiylik tuyg‘ulari, yosh qalb kechinmalari hamda o‘zbek xalqiga xos soddalik va mehr-oqibat ta’sirchan tarzda aks ettirilgan. O‘spirinlarning orzu-intilishlari va hayotga bo‘lgan qarashlari ibratli voqealar orqali ochib beriladi. Har bir qahramonning o‘ziga xos xarakteri va ichki dunyosi mahorat bilan tasvirlangan bo‘lib, voqealar rivoji kitobxonda ularni go‘yo real hayotda sodir bo‘layotgandek taassurot uyg‘otadi.

Kalit so‘zlar: Zavod aya, otinbibi, teshavoy, rais, kolxoz, qishloq me’mori, olim, akademik, bedana, gipertoniya, mingbuloq, paxta, fir’avn, shoh, shahzoda.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ КАЧЕСТВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ УЛМАСА УМАРБЕКОВА «ТРУДНО БЫТЬ ЧЕЛОВЕКОМ»

Абдуллаева Рузибуви Лутфуллаевна студентка 2 курса

Самаркандского государственного педагогического института

Научный руководитель: Преподаватель СамДПИ

Имамкулова Гульчехра Норбобоевна.

Аннотация: «Трудно быть человеком» — роман, созданный Ольмасом Умарбековым в 1969 году и неоднократно переведённый на другие языки [Wikipedia]. В произведении глубоко раскрываются вопросы человечности, совести, честности и духовности. Автор подчёркивает, что для того, чтобы стать настоящим человеком, недостаточно только знаний и высокого положения, важны также высокие нравственные качества. Через образ Абдуллы в романе резко критикуются люди, которые ради богатства и должности забывают свои

обещания. Посредством этого образа ярко показано, как человек, преследуя материальную выгоду, может утратить совесть и человеческие качества.

Кроме того, в произведении проникновенно отражены уважение к родителям, человеческое достоинство, чувства человечности, переживания юных сердец, а также присущие узбекскому народу простота и доброта. Мечты и стремления подростков, их взгляды на жизнь раскрываются через поучительные события. Характер и внутренний мир каждого героя мастерски изображены, а развитие событий создаёт у читателя впечатление, будто всё происходит в реальной жизни.

Ключевые слова: Завод ая, отинбиби, тешавой, председатель, колхоз, сельский архитектор, учёный, академик, перепёлка, гипертония, Мингбулак, хлопок, фараон, шах, шахзода.

"THE INTERPRETATION OF HUMAN QUALITIES IN ULMAS
UMARBKOV'S "IT IS DIFFICULT TO BE HUMAN"

Abdullayeva Ro'zibuvi Lutfullayevna 2nd-year student of
Samarkand State Pedagogical Institute

Scientific Supervisor: Imomqulova Gulchehra Norboboyevna,
Teacher of SamDPI.

Annotation: It Is Difficult to Be Human is a novel written by O'Imas Umarbekov in 1969 and translated into several languages [Wikipedia]. The work deeply explores the issues of humanity, conscience, honesty, and spirituality. The author emphasizes that becoming a true human being requires not only knowledge and social status, but also high moral values.

Through the character of Abdulla, the novel sharply criticizes people who forget their promises in pursuit of wealth and position. This character vividly demonstrates how a person, chasing material interests, may lose conscience and human virtues.

In addition, the work touchingly reflects respect for parents, human dignity, feelings of kindness, the emotional experiences of young people, as well as the simplicity and compassion characteristic of the Uzbek people. The dreams, aspirations, and views on life of adolescents are revealed through instructive events. The unique character and inner world of each hero are skillfully portrayed, and the development of events gives the reader the impression that everything is happening in real life.

Keywords: Zavod aya, otinbibi, teshavoy, chairman, collective farm, village architect, scholar, academician, quail, hypertension, Mingbuloq, cotton, pharaoh, king, prince.

Roman juda qiziqarli syujet asosida yaratilgan. U O‘lmas Umarbekovning birinchi romani edi. Undagi voqealar rivoji tushunarli va izchil bayon etilgan. Asar:

“Osmondagi bo‘zto‘rg‘ay, Bo‘zlamasang na bo‘lg‘ay? Gulchehraning holini So‘zlamasang na bo‘lg‘ay” (Alyor)

kabi satrlar bilan boshlanadi [Odam bo‘lish qiyin, 3-bet]. Ushbu misralar o‘quvchini o‘yga toldiradi hamda asarga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi. Shundan so‘ng asarda bir rivoyat keltiriladi:

“Shoh Muslim dunyodagi eng dono, eng odil podsholardan edi. Uning mamlakati go‘zal, shaharlari obod, xalqi tinch va farovon turmush kechirardi. Ammo podshoning farzandi yo‘q edi. Bu esa nafaqat uning o‘zini, balki butun xalqni tashvishga solardi. Oradan ko‘p yillar o‘tdi. Podsho qarib, bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda turgan paytda farzand ko‘rdi. Sevinchi ichiga sig‘may qirq kecha-yu qirq kunduz xalqqa osh berdi. Qirq birinchi kuni esa yetti iqlimdagi dong‘i ketgan donishmandlar, fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolarni yig‘ib, o‘g‘lini ko‘rsatdi va o‘z xalqining odatiga ko‘ra uning kelajagini aytib berishni so‘radi. Hamma jim edi. Hammaning boshi quyi solingan...

Podsho hayron bo‘ldi: – Bu jimlikning boisi nima?

Yana hech kimdan sado chiqmadi. Oradan ancha vaqt o‘tgach, og‘ir sukunatni Suqrotdek keksa bir olim buzdi: – Shohim, ro‘parangizda bosh egib turganlarning bari mendan yosh. Men esa dunyoga qachon kelganimni unutgan, hayotning barcha achchiq-chuchugini totgan odamman. Agar ularning gunohidan o‘tsangiz, men aytay.

Shunda keksa olim dedi: – O‘g‘lingizning dunyoda tengi bo‘lmaydi. Na kuchda, na aqlda. Ikki oyligida ikki yoshlik bolaning ishini qiladi, ikki yoshida esa yigirma yoshlik yigitdek bo‘ladi. O‘n yoshida o‘zini fir‘avn deb e‘lon qiladi. Uning dastidan vayron bo‘lmagan uy ham, mamlakat ham qolmaydi. Shuning uchun umrining ikkinchi yarmi pushaymon va azobda o‘tadi.

Jalld! – deb qichqirdi shoh va tizzasida o‘ynab o‘tirgan o‘g‘lini bag‘riga bosdi. Qirq kunlik bola birdan otasining soqoliga chang solib, yarmini yulib oldi.

Gapimning birinchi isboti shu! – dedi keksa olim.

Shoh esa quloq solmadi. Olimni olib chiqib ketishdi. Oradan yillar o‘tdi. Shoh Muslim keksa olimning gaplarini ham, o‘zini ham unutdi. Shahzoda esa olim aytganidek kun sayin ulg‘ayib, o‘n yoshga yetganda ajoyib yigit bo‘ldi. Shoh ham, xalq ham uning husniga va gaplariga mahliyo edi. Ammo shahzoda hech kimga parvo qilmas, o‘z aqliga va kuchiga mahliyo bo‘lib qolgan edi.

Bir kuni osmonni qora bulut qopladi. Qattiq shamol turib, bo‘ron boshlandi. Sel na odamni, na dov-daraxtni ayadi. Birpasda gullab-yashnagan mamlakat vayron bo‘ldi. Shaharlar, dalalar va tog‘lar suv ostida qoldi. Bo‘ron tingach, shoh bilan shahzoda o‘zlarini suvda qalqib turgan bir yog‘och ustida ko‘rdilar. Yog‘och shu qadar ingichka ediki, kimdir ozgina qimirlasa, ikkalasi ham halok bo‘lishi mumkin edi.

Shahzoda otasiga dedi: – Ota, bu yog‘och ustida ikkalamiz ham jon saqlay olmaymiz. Sen mening tug‘ilishimni istagan eding. Endi esa meni yashashim uchun qo‘yib ber. Shunday deb shahzoda otasini suvga itarib yubordi. Shoh g‘arq bo‘ldi. Shahzoda esa boshqa bir mamlakatga suzib borib, o‘zini fir‘avn deb e‘lon qildi. Uning zulmi va qahridan xalqning yarmi qochib qutuldi, yarmi esa halok bo‘ldi. Mamlakatda fir‘avning o‘zidan boshqa hech kim qolmadi. U uzoq yashadi, ammo na tushida, na o‘ngida hayot lazzatini his qildi. Butun umri yolg‘izlik va azob-uqubatda o‘tdi. Aytishlaricha, bunday odamlar yuz yilda bir tug‘ilar ekan” [Odam bo‘lish qiyin, 3–5-betlar].

Mazkur rivoyat asarning g‘oyaviy mazmuniga yaqin bo‘lib, unda mansabparastlik, o‘z manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yish va insoniylikni unutish oqibatida yuzaga keladigan fojea tasvirlangan. Rivoyatdagi shahzoda obrazi ma‘lum ma‘noda Abdulla obraziga yaqinlashadi. Chunki Abdulla ham mansab va shaxsiy manfaat yo‘lida insoniy fazilatlarni unutib qo‘yadigan obraz sifatida gavdalanadi. Yozuvchining asar boshida aynan shu rivoyatni keltirishi ham bejiz emas.

Ammo Abdullaning bunday inson bo‘lib shakllanishi ham tasodifiy emas edi. U yoshligidan tirishqoq, ilmga qiziqqan bola bo‘lgan. Keyinchalik yuz bergan ayrim voqealar uning dunyoqarashi o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Abdullaning otasi G‘ofurjon akaning Husanxon ismli yaqin do‘sti bo‘lib, u

maktabda ona tili fanidan dars berardi. Husanxon aka tez-tez ularning uyiga kelib turardi. Ammo keyingi paytlarda kelmay qo‘yadi. Bir kuni G‘ofurjon aka o‘g‘liga: – Husanxon akangga ayt, biznikiga bir kelsin, –deydi.

Abdulla maktabga borib, otasining gapini yetkazadi. Husanxon aka esa: – Vaqtim bo‘lganda borarman, – deb bepisand javob beradi. So‘ng sinfga yangi kelgan In‘om ismli bola bilan juda iliq suhbatlashib, hatto uning uyiga borish uchun ijozat ham so‘raydi. Bu holat Abdullani chuqur o‘ylantirib qo‘yadi. U nega o‘qituvchisining unga bo‘lgan munosabati o‘zgarganini tushunmay hayron bo‘ladi.

“Dars tugagach, bir o‘rtog‘idan so‘radi: – In‘omning otasi kim? – Bilmaysanmi? – dedi o‘rtog‘i. – Tuman ijroqo‘mi raisi-da.

Shunda Abdullaga hamma narsa ayon bo‘ldi. In‘omning otasi amaldor, uning otasi esa oddiy ishchi edi. Ana shu holat uning qalbida chuqur iz qoldirdi. Endi uni tizzasiga olib erkalatgan, yoshligidan yaxshi ko‘rgan Husanxon amakisi endi unga begona edi. U insonlarga bo‘lgan munosabat ko‘pincha mansab va boylikka qarab o‘zgarishini anglay boshladi. [Odam bo‘lish qiyin, 87-bet].

Mazkur voqea Abdulla tafakkurida “inson yuqori lavozimda bo‘lsa, hamma uni hurmat qiladi” degan noto‘g‘ri tushunchaning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Asarda sof vijdonli, halol va dono insonlar ham tasvirlangan. Jumladan, Gulchehra, Saodat opa, G‘ofurjon aka hamda Zavod aya kabi obrazlar insoniylik, mehr-oqibat va pok vijdon timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, Abdullaning

otasi G'ofurjon aka halol va dono inson sifatida gavdalantirilgan.

“Sermehnat, hunarli odam xor bo‘lmaydi”, – der edi u. Bu fikrni u o‘g‘liga aytib beradigan ibratli ertaklari orqali ham isbotlashga harakat qiladi. Ertaklardan birida fir‘avning qirqinchi xotini kambag‘al gilamdo‘zning qizi ekani, uning hunari tufayli nafaqat o‘zini, balki fir‘avni ham qutqarib qolishi hikoya qilinadi. Fir‘avn qaroqchilar qo‘liga tushgach, gilam to‘qish hunari yordamida o‘zining qayerdaligini xotiniga bildirib, najot

topadi. G'ofurjon aka ushbu ertak orqali hunar inson hayotidagi eng katta boylik ekanini ta'kidlaydi. Uning ikkinchi ertagida esa qaroqchilar tomonidan quduqqa tashlangan cho‘pon haqida hikoya qilinadi. Cho‘pon quduqda ajdahoga duch keladi. Shunda u nay chalib, ajdahoni uxlatadi va shu yo‘l bilan omon qoladi [Odam bo‘lish qiyin, 83-bet]. Bu ertak ham insonni qiyin vaziyatda aynan hunar va aql qutqarishini ifodalaydi.

G'ofurjon aka shu kabi ertaklar orqali o‘g‘liga mehnat, hunar va halollikning qadrini singdirishga harakat qiladi. Abdulla ham ana shu tarbiya ta’sirida ulg‘aygan edi. Ammo vaqt o‘tishi bilan uning dunyoqarashi o‘zgaradi. U asta-sekin ota-onasiga ham e’tibor bermay qo‘yadi, hatto otasining holidan xabar olishni ham unutadi. Sayyoraning otasi “akademik” bo‘lgandan so‘ng, Gulchehrani ham o‘ylamay qo'yadi. “U borgan sari Gulchehra unga anchagina begona bo‘lib qolganini payqadi. Uylanish haqida gap bo‘lishi mumkin emas endi. Innaykeyin, uylanaman deb va’da bermagan. Yaxshi ko‘rish-birga bo‘lish degan gap emas-ku! Birga bo‘lamiz deb hamma sevishganlar gapiradi. Lekin har doim ham birga bo‘lavermaydi. Albatta, Gulchehra ozgina qiynaladi. Nachora? Yoshlik-sho‘xlik, yengiltaklik. Adashganlar kammi? O‘n yil-o‘n bir yil turmush qurganlar ajralib ketishyapti-ku! Ularga hali nima bo‘libdi? “ U shunday o‘ylar ichida ota-onasiga Sayyoraga uylanishga roziligi haqida xat yozdi. Shu ondan Gulchehra batamom unutildi.

Asar voqealari shu tarzda davom etadi. Darhaqiqat, “Olim bo‘lish oson, odam bo‘lish qiyin. Abdulla maktabni “oltin medal”ga bitirdi, institutda ham yaxshi o‘qidi. Hamma uni hurmat qilardi. Ammo u insoniylik masalasida katta xatoga yo‘l qo‘ydi. Bir qizning hayotiga juda yengil nazar bilan qaradi. Uning ko‘zlarini boylik, mansab ko‘r qilib qo‘ydi. Abdulla olim bo‘la oldi, lekin odam bo‘la olmadi.

Gulchehra esa butunlay teskarisi edi. Ya’ni, juda aqlli, mehnatkash, o‘z kasbining mohir ustasi edi, uni yaqinlari “qishlog‘imiz me’mori” deyishardi. Chunki, u Mingbuloq qishlog‘ining loyihasini yaratdi. Ushbu loyiha uchun unga Toshkentda mukofot ham topshirildi. U Abstutay degan kampirning uyida yashab yurgan paytlarida, bir voqea yuz berdi. U Abdullaning onasi

Shahodat opani bozorda uchratib qoldi. Ular salom-alik qilib bo‘lishgandan so‘ng, Shahodat opa:

“Hozir to'y taraddudidamiz chol-kampir”, Abdullani uylantiradigan bo‘lib

qoldik”- dedi [Odam bo‘lish qiyin, 236-bet]. Bu xabarni eshitgan Gulchehra juda yomon ruhiy iztirobga tushdi. Chunki u Abdulladan bunday xiyonatni kutmagan edi.

Gulchehra baxtsiz hodisa oqibatida beshinchi qavatdan qulab tushib, vafot etadi. Shu voqeadan so‘ng hamma narsa tubdan o‘zgarib ketadi. Qishloqqa borganda odamlar unga nafrat bilan qarayotganini anglaydi. Hatto buvisi “ unaqa nevaram yo‘q”- deydi. Shu tariqa Abdulla nafaqat insonlarning hurmatidan , balki o‘z obrusidan ham aytiladi. Mansab va boylik ortidan quvib, insoniylikni unutgan Abdulla yolg‘iz va qadrsiz holatga kelib qoldi.

Roman so‘ngida Abdullaning bir begona kishi bilan suhbatini ham keltiriladi. Mazkur suhbat orqali yozuvchi yana bir bor asarning asosiy g‘oyasiga urg‘u beradi. Ya’ni, haqiqiy inson bo‘lib yashash ancha murakkab ekanini ta’kidlagan.

Xulosa qilib aytganda, “Odam bo‘lish qiyin” romani orqali O‘lmas Umarbekov insoniylik, vijdon, halollik va mehr-oqibat masalalarini chuqur yoritib bergan. Asarda ilmi va mansabdor bo‘lishning o‘zi yetarli emasligi, eng muhimi insoniy fazilatlarini yo‘qotmaslik kerakligi ta’kidlanadi. Gulchehra obrazi orqali sadoqat, poklik va samimiylilik ulug‘lanadi. Demak, insonning haqiqiy qadrini uning tashqi ko‘rinishi yoki mavqei emas, balki vijdoni va insoniyligi belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Odam bo‘lish qiyin: roman. O‘lmas Umarbekov. Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. -256 b.
- 2.@ziyouz.com . Toshkent-2007. b-6.
Umarbekov O'. „Odam bo'lish qiyin. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2025. – 240-bet.
- 3.U. To'ychiyev. Adabiyotshunoslikka kirish/ 《Sharq 》 nashriyot-matbaa. Aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent -2008. 358 b
- 4.Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik/M as‘ul murarrar: B. Valixo‘jayev. —T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — 264 b.
- 5.@uz.wikipedia.org .2025-yil 1-bet.